dots. **Jurayev Sherali Sharipovich.,**
magistrant **Go‘rbo‘z Fikret**
Namangan davlat texnika unversiteti

NAMANGAN VILOYATI AHOLISINI TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA’MINLAShDA XALQARO INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati misolida aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashdagi mavjud holat, muammolar va istiqbollari tahlil qilingan. Hududdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha davlatimiz tomonidan belgilangan tartibdagi Namangan viloyati aholisini toza ichimlik suvi bilan taminlash borasidagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot va bajarilish holatlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ichimlik suvi, Namangan viloyati, quvur, inshoot, infratuzilma, xalqaro investitsiya.

Kirish. Suv — hayot manbai. Uning qiymati dunyo globallashuvi jarayonida yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zero, suvsiz hayot yo‘q. Suv tiriklik evolyusiyasiga ham, atrof-muhit, iqlim o‘zgarishlariga ham million yillardan buyon beqiyos ta’sir ko‘rsatib kelayotgan obi hayotdir. Shunday ekan, insoniyat uni ko‘z qorachig‘idek asrashi shart. Qayd etish joiz, hozirgi paytda suvga bo‘lgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Boshqa tomondan esa, aholining o‘sishi hisobiga, O‘zbekistonda 2030 yilga borib, suvga bo‘lgan talab 7 mlrd. kub metrga yetishi, 2050 yilga borib esa, bu ko‘rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida toza ichimlik suvi taqchilligi dolzarb masala bo‘lib turgan bir vaqtda, mamlakatimizda aholini toza ichimlik suv ta’minoti va suv chiqarish xizmatlarini yaxshilash borasida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Toza ichimlik suvidan foydalanish insonning asosiy huquqlaridan biridir. Suv resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishning kalitidir.

Suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha davlat chora-tadbirlari samaradorligini oshirishda aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, ichimlik suvi uchun bozor narxlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlil va natijalar. Prezidentimiz tashabbuslari bilan aholining toza ichimlik suvi ta’minotini tubdan yaxshilash, buning uchun mavjud suv quvurlarini rekonstruksiya qilish, ichimlik suvi yetib bormagan qishloq va mahallalarga yangi quvurlar o‘tkazib, yurtdoshlarimizning obi-hayotga ehtiyojini qondirish davlatimiz belgilab olgan vazifalarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Namangan viloyatida ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash borasida **2023-yil davomida 449,2 mlrd so‘m** mablag‘lar hisobiga jami **2144,1** km ichimlik suvi tarmog‘i tortish hamda **134 dona** inshoot qurish ishlari va **7,4 mlrd so‘m** mablag‘lar hisobiga **24,2 km** oqova suv tarmoqlarini tortish ishlari bajarildi.

Natijada, viloyat aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi yil boshidagi **79,6 foizdan 82,7 foizga** oqova suv xizmati esa **7,4 foizdan 7,9 foizga** yetkazildi. Shuningdek, **328,4 mingdan** ziyod aholi ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

2024-yilda 160,2 mlrd so‘m mablag‘lar hisobiga **320 km** tarmoq tortish hamda **11 dona** inshoot qurish va rekonstruksiya qilish ishlari rejalashtirilgan. Jumladan, investitsiya dasturi doirasida **37,9 mlrd so‘m** mablag‘lar evaziga **268 km** ichimlik va **2 km** oqova suv tarmoqlarini tortish hamda **7 dona** inshoot qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

Shuningdek, 2024-yilda Namangan viloyatida Davlatobod tumanida barpo etilayotgan "Yangi Namangan shaharchasi"ni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun Kosonsoy shahridagi "Obod" suv olish inshootini rekonstruksiya qilish va **29 km** magistral ichimlik suvi hamda **14 km** oqova suv tarmoqlarini qurish belgilangan. Pop tumani "Mirishkor" MFYda qurilayotgan Yangi O‘zbekiston massivida **7 km** ichimlik tarmoqlarini tortish va **3 dona** inshootlar qurish rejalashirilgan.

Namangan viloyatida 2025 yil mobaynida OPEK xalqaro taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokidagi "Namangan viloyatining Zarkent, Xodikent, Iskovot, Buloqboshi, Yoshlik shaharchalari va Namangan shahrining suv ta'minotini yaxshilash" loyihasi 2019 yil 5 sentyabrdagi VM-739-son qarori asosida 54,0 mln dollorlik qiymatda amalga oshirilmoqda. Bu loyiha asosida 4 ta suv taqsimlash inshooti qurish, 2 ta suv taqsimlash inshootini rekonstruksiya qilish, 43 200 m3/sutka quvvatli 12 ta suv quduqlarini qurish, 475 km suv quvurlari va tarmoqlarini qurish hamda 26 000 ta xonadonlarga suv hisoblagichlar o‘rnatish rejaga kiritilgan.

Loyihachi va texnik nazoratchi sifatida "Dohwa Engineering Co., Ltd" (Koreya) va subkonsultanti "True Engineering Supervision" MChJ (O‘zbekiston) bilan 3,36 mln dollarlik shartnoma imzolangan bo‘lib, belgilangan tartibdagi ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunga qadar 6 ta qurilish paketi bo‘yicha loyiha-smeta va tender hujjatlari ishlab chiqilib, umumiy qiymati 23,8 mln dollarlik 12 ta shartnoma imzolandi. Loyiha boshidan 536,6 km ichimlik suv quvurlari, 67,1 km uy tarmoqlari va 3 ta suv taqsimlash inshootlari qurildi. 13 ta tik suv olish quduqlari (skvajina) burg‘ulandi va 10 861 ta suv hisoblagichlar o‘rnatildi. Qurilish ishlarining bajarilishi 81 foizni tashkil etmoqda.

"Zarkent" suv olish inshootini qurish, "Zarkent", "Xodikent" suv taqsimlash inshootlarini qurish va "Iskovot" suv taqsimlash inshootini qayta ta'mirlash va suv quvurlarini qurish bo‘yicha "Farg'ona Me'mor Qurilish" MChJ bilan tuzilgan shartnoma asosida 5 ta rezervuar (har biri 500 m3 sig‘imli) qurish, 16,6 km uzunlikda (Ø200-280 mm) magistral tarmoqlar qurish, 106,4 km uzunlikda (Ø50-160 mm) suv tarmoqlari va 3 ta suv quduqlarini burg‘ulash qurish hamda 5 220 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 133,2 km uzunlikda suv tarmoqlari va 5 ta suv rezervuari qurildi qurildi, 4 ta suv qudug‘i burg‘ulandi hamda 3 211 ta xonadonga suv hisoblagich o‘rnatildi.

"Bekobod" suv olish inshootini qurish va tarmoqlarni tortish bo‘yicha JV "Saida Fayz Qurilish PE & Qurilish Ko`chma kolonna 017" bilan imzolangan shartnoma asosida 8,45 km (Ø500-160mm) suv quvurlari, 9 ta suv olish quduqlarini qurish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 9,0 km uzunlikda suv tarmoqlari qurildi, 9 ta suv olish qudug‘i burg‘ulandi. Qurilish ishlarining bajarilishi 91 foizni tashkil etmoqda.

"Buloqboshi", "Navkent" MFY va Yangiqo‘rg‘on tumani markazini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun suv tarmoqlarini tortish ishlari bo‘yicha 22,4 km (Ø50-400 mm) magistral va ichki suv tarmog‘ini qurish va 601 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunga qadar 17,7 km uzunlikda suv tarmoqlari qurildi, 149 ta xonadonga suv xisoblagich o‘rnatildi. Qurilish ishlarining bajarilishi 52 foizni tashkil etadi.

Yangiqo‘rg‘on tumani markaziga ichimlik suvi tarmoqlarini o‘tkazish uchun 60,1 km (Ø50-250 mm) suv tarmog‘ini qurish va 5 626 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 56,6 km ichki suv va 14,1 km uy tarmoqlari qurildi va 1 822 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatildi. Qurilish ishlarining bajarilishi 54 foizni tashkil etib, ishlar davom ettirilmoqda.

“Rovot”, “Sangiston”, “Radivon”, “Qiziriq” va “Qorapolvon” MFYlar uchun suv quvurlarini tortishga “Decem co. Ltd Association” (J.Koreya) bilan 52,5 km (Ø50-200mm) ichimlik suv tarmog‘ini qurish va 1 819 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 64,0 km suv tarmoqlari va 5,9 km uy tarmoqlari qurilib, 1 604 ta xonadonga suv hisoblagich o‘rnatildi. “Do‘ldi”, “Yorilgan” va “Rovut” MFYlar uchun suv tarmoqlari quvurlarini tortish uchun esa 54,5 km (Ø50-200mm) ichimlik suv tarmog‘i
va 2 703 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 66,1 km suv tarmoqlari va 11,6 km uy tarmoqlari qurildi hamda 2 303 ta xonadonga suv hisoblagich o‘rnatildi.

Namangan shahrining shimoliy qismiga ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, “Mustaqillik 5 yilligi” suv taqsimlash inshootini qayta ta’mirlash va “Bo‘ston” suv tarqatish inshootini qurish uchun “426 XIKMK” MChJ bilan 1 ta suv taqsimlash inshootini qurish, 1 ta suv taqsimlash inshootini rekonstruksiya qilish hamda 38,4 km ichimlik suv tarqatish tarmoqlarini tortish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 55,4 km suv tarmoqlari va 7,8 km uy tarmoqlari qurilib, 1 307 ta suv xisoblagich o‘rnatildi. Shuningdek, 1 ta suv taqsimlash inshooti qurildi va 1 ta suv taqsimlash inshooti rekonstruksiya qilindi.

Namangan shahrining shimoliy qismiga ichimlik suvi tarmoqlarini qurish uchun “Suv Taraqqiyot" MChJ va “Maxsus Mexanizatsiyalashtirilgan Yo'l Stansiyasi” qo‘shma kompaniyasi bilan 56,5 km (Ø50-300mm) ichimlik suv tarmoqlarini tortish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 47,0 km suv tarmoqlari qurildi. Qurilish ishlarining bajarilishi 50 foizni tashkil etib, ishlar davom ettirilmoqda. Kosonsoy tumanida “Buloq” suv tarqatish inshootini qurish, “Yoshlik” suv tarqatish inshootidan “Buloq” suv tarqatish inshootigacha D-400 mm lik magistral suv tarmog‘ini o‘tkazishda “Farg’ona Me’mor Qurilish” MChJ bilan 6 480 m3/sutka quvvatli 1 ta suv taqsimlash inshooti va 9,3 km magistral suv tarmoqlarini qurish ko‘zda tutilgan. “Buloq” suv taqsimlash inshootidan “Islomobod” suv taqsimlash inshootigacha D-300 mm li magistral suv tarmog‘ini o‘tkazish, Kosonsoy tumanining 3 ta mahallasida suv tarmoqlari qurilishida 38,9 km (Ø50-300mm) ichimlik suv tarmog‘i va 1 052 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 40,4 km suv tarmoqlari tortildi va 465 ta hisoblagich o‘rnatildi. “Buloq” suv tarqatish inshootidan Namangan shaxrining Nurobod daxasiga D-300 mm lik magistral suv tarmog‘ini o‘tkazish va suv tarmoqlarini qurish uchun 36,8 km (Ø50-300mm) ichimlik suv tarmog‘i va 874 ta xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga qadar 38,0 km suv tarmoqlari tortildi.

Xulosa. Namangan viloyati aholisini ichimlik suv ta’minotini yanada yaxshilash, inshootlarni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish bo‘yicha umumiy qiymati 241,15 mln. AQSh dollarini tashkil etuvchi 4 ta loyihalarga 196,46 mln. AQSh dollari miqdorida Xalqaro Moliya Institutlarining imtiyozli kreditlarini jalb etish bo‘yicha ishlar olib borilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu mablag‘lar hisobidan Namangan shahrini ichimlik suvi bilan ta’minlovchi 3 ta suv olish va 8 ta suv taqsimlash inshootlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish orqali ichimlik suv inshootlari quvvatini 410 ming m3/sutkaga yetkazish, 53,5 km ichimlik suv quvurlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda Pop tumani oqava suvlarni tozalash inshootini

to‘liq rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirildi. Belgilangan istiqboldagi keng ko‘lamli rejalarning bajarilishi natijasida viloyatimizda shu kunlarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash ko‘rsatkichi **67 %** dan **85 %**ga yetkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNICEF Uzbekistan. (2023). Safe water and sanitation for every child.
2. www.stat.uz – Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sahifasi.
3. Namangan viloyati hokimligi – ichimlik suvi ta’minoti bo‘yicha dasturiy ma’lumotlar (2023).
4. Norbekov O. Suv-hayot manbai // “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. 2011 yil 3-son.
5. Axmedov A. Sanoat korxonalarining suv resurslaridan foydalanish muammolari //“O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. 2013 yil 2-son.
6. Axmedov A., Ibragimov R. Xorazm viloyati aholisini ichimlik suv bilan ta’minlashdagi muammolar//“Qishloq va suv xo‘jaligining zamonaviy muammolari” mavzusidagi iqtidorli talabalar, magistrantlar va yosh olimlarning XIII Respublika ilmiy amaliy anjumani, 3-qism. TIMI.
7. O'zbekiston Respublikasi davlat standarti O'zbekiston metrologiya va sertifikatlashtirish standartlashtirish agentligi ichimlik suvi texnik shartlar (O‘z DSt 950:2011) "O'zstandart" agentligining 02.02.2011-yildagi 05-273-son qarori bilan tasdiqlangan va kiritilgan.
8. Arifjanov, A., Samiev , L., Khaydarov, S., Kasimov, T., & Juraev , S. (2022, June). Increasing efficient use of water storage pools. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 040037). AIP Publishing LLC.
9. Jo‘rayev, Sh, and A. Akramov. "Ichimlik suvi tozalash tindirgichlariga loyqalanishning ta’siri: Ichimlik suvi tozalash tindirgichlariga loyqalanishning ta’siri." (2023): 1063-1066.
10. Akramov, A. "Ichimlik suvga maxsus ishlov berishni takomillashtirish." Science and innovation 1.A7 (2022): 687-691.
11. Иброхимжонов, Х. Ш., & Қаюмов, Д. А. (2023). Сув ва муаллақ чўкиндилар аралашмаси ҳаракатида қувур ўтказгичнинг ишқаланишига таъсир. IQRO JURNALI, 2(1), 670-674.
12. Najmitdinovich, M. N. (2022). Suv iste’moli uchun iqtisodiy samarador qurilma.